

2026-yil 12-mart

“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalari bilan uchrashdi



Toshkent shahridagi Toshkent kimyo-texnologiya institutida “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Ushbu uchrashuv yoshlarning bilim va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, sohadagi istiqbolli yo'nalishlar hamda kelgusi imkoniyatlar haqida fikr almashishga bag'ishlandi.



Muloqot davomida talabalar kimyo sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda yosh mutaxassislar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma'lumot oldilar. Shuningdek, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, taklif va tashabbuslarini bildirish imkoniga ega bo'ldilar. Qayd etilganidek, davlatimiz rahbari joriy yilning 24-fevral kuni yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvida mamlakatimizda har haftaning payshanba kuni vazirliklar, idoralar va hokimliklarda "Yoshlar kuni" sifatida o'tkazilishini ma'lum qilgan edi.



Uchrashuv yakunida kimyo sanoatining kelajagi zamonaviy bilim va innovatsion g'oyalarga ega yosh mutaxassislar bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlandi. Talabalar bilan ilmiy izlanishlar, startap loyihalar va ishlab chiqarish amaliyotini uyg'unlashtirish orqali sohada yangi yechimlar yaratish imkoniyatlari muhokama qilindi.



Shuningdek, yoshlarning tashabbus va g'oyalari kimyo sanoatini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutishi qayd etildi.











source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-toshkent-kimyo-texnologiy>